

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MATEMATIKA FANIGA QIZIQTIRISH METODIKALARI

Ilmiy rahbar: Sharofiddinova Dilfuza

Andijon davlat pedagogika instituti 101-guruh talabasi

Dehqonova Zarnigor Erkin qizi

E-mail: zilolaxondexqonova1102@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bu maqolada boshlang‘ich hamda yuqori sinf o‘quvchilarini matematika faniga qiziqtirish bilan ularni ijobiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, ularning hayotida bo‘ladigan muammolarni o‘zlari hal etishga ko‘nikma hosil qilish haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, matematik ekskursiya, mantiqiy fikrlash, jonli ko‘rgazma, ilmiy metod.

ABSTRACT

In this article, it is written about making elementary and high school students interested in mathematics, teaching them to think positively and critically, and creating the ability to solve the problems they encounter in their lives.

Key words: critical thinking, mathematical excursion, logical thinking, live demonstration, scientific method.

АННОТАЦИЯ

В этой статье написано о том, как заинтересовать математикой учащихся младших и старших классов, научить их мыслить позитивно и критически, а также сформировать у них способность решать проблемы, с которыми они сталкиваются в своей жизни.

Ключевые слова: критическое мышление, математический экскурс, логическое мышление, живая демонстрация, научный метод.

Bizga ma‘lumki, barcha narsalar osondan murakkabga tomon yo‘naltiriladi. Shunday ekan boshlang‘ich sinf matematika darslarida ham sodda tushunchalar berib boriladi va bu tushunchalar orqali o‘quvchilar matematika fani haqidagi dastlabki bilimlarga ega bo‘ladilar va matematika qiyin degan fikrdan halos bo‘lishadi. Matematika darsida arifmetik amallar bilan bir qatorda o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, mulohaza qilishga undovchi masalalar ham berib boriladi. Masalalarda berilgan “ta”,

“ko‘p”, “ta ko‘p”, “ta kam”, “marta ko‘p”, “marta kam”, kabi tushunchalarni o‘rganadilar.

O‘qituvchi o‘quvchilarga masalalarni tushuntirishda ularning kundalik hayotida uchraydigan misollar orqali tushuntirsa o‘quvchilar masalani mohiyatini yaxshiroq tushunib yetadilar.

Masalan: Nozimada beshta ruchka bor edi. U dugonasiga 2 ta ruchkasini va opasiga 1 ta ruchkasini berdi. Nozimada nechta ruchka qoldi?

O‘quvchilarda masala haqida tasavvur uyg‘otganimizdan keyin sodda masalalarni yechishga tayyorgarlik bosqichi amalga oshiriladi. Masalani yechish jarayonida o‘quvchida dastlab masala haqida tasavvur uyg‘otiladi va masalani “kalit so‘zlari” aytib o‘tiladi.

Shundan so‘ng o‘quvchilarni mustaqil masala tuzishga o‘rgatish va masala yechish qobiliyatini shakllantirish ularda yuqori sinflardagi masalalarni yechishda qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Undan tashqari ularni tasavvurlarini kuchaytirish lozim. Buning uchun o‘qituvchi turli geometrik shakllarni jonli ko‘rsatishi va o‘tilayotgan mavzuga qarab rasmlil ko‘rgazmalarni ham qo‘llashi talab etiladi.

O‘quvchilarni turli xil matematik ekskursiyalarga olib borish, matematika faniga hissa qo‘shgan allomalar hayoti bilan tanishtirish, matematika fani insonni shu kabi buyuk cho‘qqilarga erishishiga sabab bo‘lishini tushuntirish o‘quvchilarni fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi.

Hozirgi vaqtlarda o‘qituvchilar uch xonali va undan ko‘p bo‘lgan xonali sonlarni qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish kabi amallarni o‘quvchilarga tushuntirishga qiynaladilar.

Albatta, buni ham avval sodda misollardan boshlab ya’ni dastlab bir xonali keyinchalik esa ikki xonali sonlarni sonlarni arifmetik amallarini hisoblashni puxta o‘rganmog‘i kerak. Shunda o‘quvchida ko‘nikma hosil bo‘ladi va uch xonali sonlarni o‘rganishi oson bo‘ladi.

Kichik yoshda bolalar o‘yin o‘ynashga qiziqishadi. Bir xillikdan zerikishadi va ba’zida o‘yin o‘ynashni xohlashadi. O‘in metodlari orqali o‘quvchilarni o‘tilgan mavzuni

Matematika fanini o‘rganish insonning ilmga bo‘lgan qiziqishini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirib, boshqa fanlarning o‘zlashtirilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga aytib o‘tmoqchimanki, o‘qituvchida bir paytning o‘zida 25-30 ta o‘quvchi bilan shug‘unlanish qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun o‘quvchilar darslardan bo‘sh vaqtlarida to‘garak mashg‘ulotlariga qolishi va ota-onsi bilan misol-masalalarni birga yechishi o‘quvchida fanga bo‘lgan qiziqishni orttiradi.

Xulosa qilib aytganda, fanga qiziqtirish uchun o'qituvchi turli xil jonli ko'rgazmalarni tayyorlashi ularda tasavvurni oshirishi va mantiqiy, tanqidiy fikrlashga, turli ilmiy metodlarni tushunish ko'nikmalarini va bolalarni kelajakda ilmiy muammolarni hal qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Jumayev M.E> va boshq. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) – T: "Fan va texnologiya", 2005-yil.
2. Xamrayeva E.R "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika faniga qiziqtirishning o'ziga xos xususiyatlari" maqolasi. "PEDAGOGIS" international reseach journal. 2022-yil.